

UDC (UO'K, YDK) 94(54)-051

NEMIS ADIBI M.PRAVDIN IJODIDA BOBUR MIRZO TALQINI²¹***Tursunov Akmaljon Hamidjonovich***

Namangan davlat chet tillari instituti professori

E-mail; tursunov_ajon@mail.ru

+998972176884,

Orcid. 0009-0002-7358-1072

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nemis adibi M.Pravdinning “Yo‘qdan bor bo‘lgan saltanat; buyuk mo‘g‘ullar” asarida Bobur Mirzo ijtimoiy-siyosiy faoliyati haqida fikr yuritiladi. Pravdin Germaniyada yerda ulg‘aydi, o‘qidi va ijod qildi. Keyinchalik u Londonga ko‘chib ketadi. Bu yerda samarali ijod qiladi va o‘zining ajoyib romanlari, fantastik asarlarini yozadi. Adib 1965-yili “Yo‘qdan bunyod bo‘lgan saltanat yoxud birinchi buyuk mo‘g‘ullar” (Das Reich aus dem Nichts, die ersten Grossmoguln) nomli asarini chop ettiradi. M.Pravdinning mazkur asari faktik materiallarga boyligi, keltirilgan manbalarning tarixiy haqiqatga mos kelishi va ayrim o‘rinlarda Bobur hayotiga tegishli bo‘lgan yangi ma’lumotlar qayd etilgani bilan qimmatlidir. Asar boshdan-oxiriga qadar hikoya tarzida yozilgan bo‘lib, unda Boburning sarguzashtlari; yosh shahzodaning taxtga o‘tirishi, yangi-yangi yurishlar hamda zafarlar ajoyib tarzda ifodalangan. Muallif asarda Boburning shaxsiyatiga oid xususiyatlarni, ya’ni uning metin irodasi, davlatni boshqarishi va o‘zi egallagan o‘lkalarda olib borgan obodonlashtirish ishlari, jumladan, yaratgan bog‘lari, barpo etgan binolari, qo‘shinda o‘rnatgan tartib-intizomi xususida qiziqarli ma’lumotlarni keltirgan.

KALIT SO‘ZLAR

Hindiston, tarix, Sharq, tadqiqot, tahlil, boburiylar, boburshunoslik, mo‘g‘ullar, sarkarda, shoir, taxt vorisi.

Received: March 5, 2025**Accepted:** March 18, 2024**Available online:** May 2, 2025

²¹ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Tursunov A. Nemis adibi M.Pravdin ijodida Bobur Mirzo talqini. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 262-272.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА БОБУРА МИРЗО В ТВОРЧЕСТВЕ НЕМЕЦКОГО ПИСАТЕЛЯ М. ПРАВДИНА

Турсунов Акмалжон Хамиджонович

Профессор

Наманганский государственный

институт иностранных языков

+998972176884,

E-mail; tursunov_ajon@mail.ru

Orcid. 0009-0002-7358-1072

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается общественно-политическая деятельность Бабура Мирзо в произведении немецкого писателя М. Правдина *«Государство, возникшее из ничего; великие моголы»*. Правдин вырос, получил образование и начал творческую деятельность в Германии. Позже он переехал в Лондон, где успешно продолжил свою литературную деятельность, написав выдающиеся романы и фантастические произведения. В 1965 году писатель опубликовал свою книгу *«Государство, возникшее из ничего, или Первые великие моголы»* (*Das Reich aus dem Nichts, die ersten Grossmoguln*). Данная работа М. Правдина ценна богатством представленного в ней фактического материала, соответствием приведённых источников исторической действительности, а также наличием новых сведений, касающихся жизни Бабура. Произведение написано в форме повествования и описывает приключения Бабура, его восшествие на трон, многочисленные походы и победы в увлекательной и выразительной манере. Автор в своем произведении приводит интересные сведения о личностных качествах Бабура (например, его твердой воле), проявившихся в управлении государством и проводимых им работах по благоустройству завоеванных территорий, включая создание садов, строительство зданий, а также установленной им дисциплине в войске.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Индия, история, Восток, исследование, анализ, бабуриды, бабуроведение, монголы, полководец, поэт, наследник трона.

THE PORTRAYAL OF BABUR MIRZA IN THE WORKS OF GERMAN AUTHOR M. PRAVDIN

Tursunov Akmaljon Hamidjonovich

Professor at

Namangan State Institute of Foreign Languages

+998972176884,

E-mail; tursunov_ajon@mail.ru

Orcid. 0009-0002-7358-1072

ABSTRACT

This article examines the socio-political activities of Babur Mirza as portrayed in the work of German writer M.Pravdin, “An Empire Born from Nothing; the Great Mughals.” Pravdin grew up, studied, and worked in Germany. Later, he moved to London, where he continued to write productively, creating his remarkable novels and fantasy works. In 1965, the author published his work “An Empire Created from Nothing, or the First Great Mughals” (Das Reich aus dem Nichts, die ersten Grossmoguln). M. Pravdin’s work is valuable for its wealth of factual material, the historical accuracy of its sources, and the inclusion of new information about Babur’s life in certain sections. The work is written entirely in narrative form, vividly describing Babur’s adventures, the young prince’s ascension to the throne, and his new campaigns and victories. In the work, the author provides fascinating details about Babur’s personal characteristics, namely his iron will, his governance of the state, and the improvement works he carried out in the territories he conquered, including the gardens he created, the buildings he constructed, and the discipline he established in his army.

KEY WORDS

India, history, East, research, analysis, Baburid’s, Babur studies, Mongols, commander, poet, heir to the throne.

KIRISH

Bobur va Boburiylar tarixi va madaniyatini o'rganish nafaqat yurtimiz olimlari va yozuvchilarini, balki xorijiy olimlarni, jumladan G'arbiy Yevropa olimlarini ham o'ziga jalb qilgan va ularda katta qiziqish uyg'otgan. Ma'lumotlarga ko'ra Bobur haqida Yevropada ilk bor yaratilgan asar, bu fransuz sayyohi va tabibi Fransua Bernening "Boburiylar saltanatining so'nggi tarixi" nomli ilmiy-ma'rifiy asaridir. Bu asar 1680-yilda yaratilgan va o'sha davr siyosiy doiralarida yuqori baholangan va noyob manba hisoblangan. (Ibrohimov A., 2000. 13) Keyinroq G'arbliklar Bobur nomini 1697-yili fransuz sharqshunos olimi Bartolame Erbalo Molenli orqali eshitdilar. U "Sharq kutubxonasi" qomusida o'zining "Bobur yoki Babar" nomli maqolasida Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ilk bor fransuz kitobxonlariga ma'lumot bergan edi. 1705-yilda esa Boburnomaning Farg'ona tasviri golland tilida Vitsen tomonidan bosilib chiqdi.

Ta'kidlash joizki, Bobur shaxsini nafaqat Yevropaga, balki butun dunyoga mashhur bo'lishini ikki omil bilan izohlash mumkin. Birinchisi, Boburning Hindistonni zabt etishi va u yerda o'z hukmronligini o'rnatishi bo'lsa, ikkinchisi, uning ijodkor shaxs bo'lganligi, ya'ni u yaratgan "Boburnoma" asari va she'rlaridir. (Tursunov A., 2022. 95) Ko'plab olimlar ular xoh yurtimiz, xoh xorijiy olimlar bo'lishidan qat'iy nazar, avvalo, "Boburnoma"ga murojaat qilganlar. Boburning hayot yo'li, jangu jadallari va u amalga oshirgan ezgu ishlarini o'rganish uchun hukmdorning o'zi yaratgan asari hamisha dasturulamal bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Nemis adiblari tomonidan Bobur va boburiylar tarixi va adabiyotini o'rganish asosan XX asrning ikkinchi yarmidan boshlandi va hozirgacha davom etmoqda. Bu borada E.Kox, F.Vyortle, M.Pravdin, K Xabix, Sh.Konerman, A.Shimmel. K.Sho'nih, M.Erdal, V.Shtammmler kabi sharqshunos olimlar samarali ishlar olib bordilar. Ular Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ajoyib asarlar yaratdilar, bu asarlarning yaratilishiga va mazmun-mohiyatiga Boburnoma, Humoyunnoma, Akbarnoma, Tarixi Rashidiy, Tarixi Shershohi kabi asarlarning ta'siri katta bo'ldi.

Xorijiy adabiyotlarda Bobur va uning avlodlariga nisbatan mo'g'ullar degan nom bilan atash odat bo'lib qolgan. Bu an'ana hind va ingliz adabiyotida yaqqol ko'zga tashlanadi, bu holat nemis adabiyotida ham kuzatiladi.

Tarixdan ma'lumki, Bobur ona tomonidan mo'g'ullarga qarindosh sanaladi. Boburnomada yozilishicha u tog'alaridan, ya'ni mo'g'ul xonlaridan og'ir damlarida yordam ham oladi, lekin shunga qaramasdan o'zining mo'g'ullarga nisbatan xayrihoh emasligini bir necha bor ta'kidlaydi. Bu haqda Boburnomada shunday yozilgan, "Mening onam qoshida ming besh yuz-ikki mingga yaqin mo'g'ul ulusidan bor edi. Hisordan Hamza Sulton va Mahdiy Sulton, Muhammad Dug'lat bilan yana shuncha mo'g'ul kelgan edi. Hamisha yomonlik va buzuvchilik mo'g'ul ulusidan sodir bo'lib kelgandir. Hozirgacha besh marta men bilan yovlashdilar. Menga munosabatsizlikdan yovlashganlari yo'q. Bunday harakatlarni ular o'z xonlariga nisbatan ham takror-takror qildilar". (Boburnoma., 2008. 54)

Bobur hamisha o'zining turkiy bo'lganligidan faxrlangan va turkiy tilda ijod qilgan. "Yo'qdan bunyod bo'lgan saltanat, yoxud birinchi buyuk mo'g'ullar" (Pravdin M., 1965) asarining muallifi M.Pravdin Boburning mo'g'ul emasligini ajoyib tarzda tasvirlab bergan. "U (Bobur) turk bo'lganidan faxrlanardi, lekin o'zi fath etgan yerlarda uni va lashkarlarini mo'g'ullar deb atashardi. Bu *Mongol* so'zini afg'on va turk xalqlari tomonidan *mo'g'ul* deb buzib talaffuz qilinishi ta'siridir". (Pravdin M., 1965. 32)

Bobur va boburiylar sulolasini nima uchun *mo'g'ullar* deb atalib kelingani haqida ilmda ko'plab fikrlar bildirilgan va bu atama noto'g'ri ekanligi ham ta'kidlangan. Xususan, bu haqda akademik V.Bartold fikricha, Yevropaliklar Temurni va uning o'g'illari hamda nabiralarini mo'g'uldan tarqalgan deb hisoblab, Bobur saltanati uchun "Buyuk mo'g'ullar" degan nom to'qidilar. Boburiylar mo'g'ul emaslar, balki bu tarixiy anglashilmovchilikdir. (Ibrohimov A., 2000. 17)

Bu borada nemis olimlari Sh.Konerman va A.Shimmel shunday fikrni bildiradi: "Hindistonning mo'g'ul hukmdorlari o'zlari uchun mo'g'ul degan nomni hech qachon ishlatmaganlar. Bu mongol so'zining arabiylashgan shakli. Boburiylar

O'rta Osiyolik jahongir Temur sulolasidan edilar. Saltanat asoschisi Bobur Temur avlodidan bo'lgan. Bobur ona tomonidagina mo'g'ullar hukmdori Chingizxonga borib taqaladi" (Doch die Mogulherrscher von Indien nannten sich selbst nie mit diesem Namen, der nichts als seine Arabisierung des Stammesnamens "Mongole" ist. Sie waren „Das Haus“ Timurs, des zentralasiatischen Eroberers (gest. 1405), von dem Babur, der Reichgruender, indirekter Linie abstammte, waehrend seine Abstammung von dem Mongolenherrscher Chingiz Khan nur durch die muetterliche Linie ging). (Schimmel A., 2011. 7)

Bugungi kunga kelib ko'plab olim va adiblarimiz sa'y-harakatlari sabab tarixiy haqiqat tiklandi. Bobur va uning avlodlari "Boburiylar", u asos solgan davlat esa "Boburiylar saltanati" deb atalmoqda.

Zahiriddin Muhammad Bobur haqida nemis adiblari tomonidan yaratilgan tarixiy-adabiy asarlar ichida Mihayl Pravdinning "Yo'qdan bunyod bo'lgan saltanat yoxud birinchi buyuk mo'g'ullar" (Das Reich aus dem Nichts, die ersten Grossmoguln) nomli asari alohida e'tirofga loyiq. Mihayl Pravdin asli kelib chiqishi ukrainalik bo'lib, uning oilasi rus knyazligida yashagan. U 1894-yil 20-yanvarda rus knyazligida tavallud topdi. XX asr boshlarida Rossiyada revolyutsion harakatlar boshlanishi tufayli uning oilasi Germaniyaga ko'chib o'tdi. Pravdin Germaniyada o'qidi va bu yerda yozuvchi sifatida ma'lum yutuqlarga erishdi. U avvaliga nemis tilida kichik-kichik badiiy hikoyalar yoza boshlaydi va ularni gazeta – jurnallarda e'lon qiladi. Keyinchalik u Londonga ko'chib ketadi. Bu yerda samarali ijod qiladi va o'zining ajoyib romanlari, fantastik asarlarini yozadi.

Pravdinga shuhrat keltirgan asarlaridan biri bu "Chingizxon va uning avlodlari" ("Tchingis-Chan und seine Erben", Berlin 1938) nomli romanidir. Mazkur asar o'sha davrda bir necha bor nashr etilgan va boshqa tillarga tarjima qilingan. M.Pravdin 1963 yil Londonda ingliz tilida "Buyuk mo'g'ul imperiyasini asoschilari" ("The builders of the Mogul Empire", London, 1963) nomli asarini chop ettiradi. Oradan ikki yil o'tib, u mazkur asarni qayta ishlab nemis tilida "Yo'qdan

bunyod bo'lgan saltanat yoxud birinchi buyuk mo'g'ullar" ("Das Reich aus dem Nichts, die ersten Grossmoguln" nomi ostida Shtutgartda nashr ettirdi.

Asar Movarounnahr tarixi bilan boshlanib, Boburning Farg'ona taxtiga o'tirishidan umrining oxirigacha bosib o'tgan yo'lini qamrab oladi. Mazkur asar muallifning kirish so'zi, uch qism, vaqt ko'rsatkichlari, bibliografiya va ismlar izohidan iborat bo'lib, kirish so'zi bilan boshlanadi. Muallif kirish so'zida Bobur va boburiylar saltanatiga oid voqea-hodisalar tarixiy faktlar asosida bayon etilganligini ta'kidlaydi.

Kitobning birinchi qismi "Bobur" deb ataladi va bu qismda Movarounnahr tarixi, Boburning Farg'ona taxtiga o'tirishi, Hindistonni egallashi va Hindistonda o'rnatgan hukmronligigacha bo'lgan voqealar tasvirlanadi. Ikkinchi qismda Humoyun davri, uchinchi qismda esa Akbarning hukmronlik davri tasvirlanadi.

M.Pravdinning mazkur asari faktik materiallarga boyligi, keltirilgan manbalarning tarixiy haqiqatga mos kelishi va ayrim o'rinlarda Bobur hayotiga tegishli bo'lgan yangi ma'lumotlar qayd etilgani bilan qimmatlidir.

Asar boshdan-oxiriga qadar hikoya tarzida yozilgan bo'lib, unda Boburning sarguzashtlari; yosh shahzodaning taxtga o'tirishi, Samarqand va Andijon uchun bo'lgan janglar, g'alaba va mag'lubiyat, beklarning sodiqligi va xoinligi, darbadarlik, yangi-yangi yurishlar hamda zafarlar ajoyib tarzda ifodalangan. Muallif o'z asarida Boburning shaxsiyatiga oid xususiyatlarni, ya'ni uning metin irodasi, davlatni boshqarishi va o'zi egallagan o'lkalarda olib borgan obodonlashtirish ishlari, jumladan, yaratgan bog'lari, barpo etgan binolari, qo'shinda o'rnatgan tartib-intizomi xususida qiziqarli ma'lumotlarni keltirgan.

Asarda o'rni-o'rni bilan Bobur ijodidan namunalarni keltirish orqali uning betakror shoir, buyuk qalb egasi ekanligi kitobxonga uqtirilganligini adibning mahorati deb belgilash mumkin. Buni muallifining quyidagi fikrlaridan ham uqib olish mumkin; "Bobur o'zining shoirlik qobiliyati, turkiy hamda forsiyda she'rlar bita olishi bilan faxrlanardi. U donishmandlarning hikmatlari va buyuk shoirlarning

she'riyatini mukammal bilgan. Uning fikricha, odamiylik va axloqiy madaniyat har qanday holda ham inson turmush tarzining bosh mezon sifatida saqlanib qolinishi lozimligini ta'kidlab, bu fazilatlarining yo'qolishi o'limdan-da og'irroq ekanligini e'tirof etadi". (*Babur war stolz auf seine Faehigkeit, Verse zu schreiben und sich in gewaehlter Sprache auszudruecken, sei es in Tuerkisch oder in Persisch. Er kannte die Aussprueche der weisen Maenner und die Verse der grossen Dichter. Die Freuden und Genuesse eines hochentwickelten Kulturlebens erachtete er als genauso wichtig wie die Krieygskunst, und wenn er seine Zeitgenossen beschrieb, gab er immer eine Schaetzung von ihnen als Fechter, als Bogenschuetzen und als Verseschreiber. Die angemessene Form musste unter allen Umstaenden gewahrt werden als ein Zeichen kulturellen Verhaltens, und der Verlust des Gesichtes waere schlimmer gewesen als der Tod*). (Pravdin M., 1965. 27)

M.Pravdin Boburning nafaqat shoir, balki turkiy va forsiy tillarni mukammal egallagan, xattotlik san'atidan ham xabardor tilshunos ekanligini yuksak e'tirof etadi.

Bizningcha, yozuvchi o'z asarida Boburning yaratuvchanlik xislatlarini keng yoritishga uringan: Kobul va Hindistonda barpo etgan bog'larini samimiyat bilan tasvirlay olgan. Tarixdan bizga ma'lumki, Sohibqiron Amir Temur o'z davrida ko'plab bog'lar barpo qilgan va bu yaratuvchanlik barcha temuriylarga meros bo'lib qolgan. Xususan, Bobur Mirzo ham o'zi fath etgan o'lkalarda, avvalo, obodonlashtirish ishlariga katta e'tibor qaratgan. U Kobulni egallaganda u yerda o'zi yaxshi ko'rgan "Bog'i vafo"ni barpo qiladi. Hindistonni zabt etganda ham bog'lar juda kamligini aniqlagan va birinchi navbatda shu ishlarni amalga oshirgan. Hindistondagi qisqa hukmronlik davridayoq ko'plab ariqlar, gulzorlar, bog'lar va masjidlar qurdirgan.

Pravdin Bobur Agra atrofida tashlandiq va xaroba joylarni hukmronligining ilk kunlaridan obodonlashtirishga kirishganligi, hovuz va quduqlar qazdirganligi, ajoyib qarorgohlar qurdirgani orqali uning nechog'lik bunyodkor shaxs ekanligini

o'quvchiga ko'rsatib bera olgan va fikrimizcha bu orqali Boburning xalqparvarligini dalillagan.

Muallif fikrini davom ettirib, bunyodkorlik ishiga Bobur tinim bilmay g'ayrat va shijoat bilan yondashganini, hatto yomg'irlar mavsumida betob bo'lishiga qaramay, olib borilayotgan qurilish va obodonlashtirish ishlarini nazorat qilganini, bunda u yangi suv havzalari qazdirish, sug'orish tizimini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratganini ta'kidlaydi.

Shunisi ahamiyatliki, mazkur asarda hech bir tarixiy manbalarda uchramaydigan munozarali voqealar ham tasvirlangan. Masalan, Shoh Boburning Hindiston taxti vorisini belgilash bo'yicha o'y-fikrlari fikrimiz dalilidir. Muallif Bobur o'zidan keyin Hindiston taxtini katta o'g'li Humoyunga emas balki, kenjasi Hindolga qoldirmoqchi bo'lgan, degan fikrni ilgari suradi va bu borada quyidagi farazlarni keltiradi:

Ko'plab tarixchilar Humoyunning Badaxshondan ketishi va Agraga kelishini turlicha yoritganlar. Tarixiy manbalarga ko'ra ("Boburnoma", "Humoyunnoma", "Tarixi Rashidiy" asarlarida) Humoyun to'satdan Badaxshonni tashlab Kobulga keladi va bu yerda ukasi Komron bilan ko'rishib qoladi. Ular ikkovi bir bo'lib, Boburning eng kichik o'g'li o'n yoshli Hindolni Badaxshonga jo'natishadi. Humoyun esa tezlik bilan Hindistonga yo'l oladi va kutilmaganda Agrada paydo bo'ladi.

Bu haqda "Boburnoma"da shunday yozilgan, *"Muhammad Humoyun, bir yildirki, Badaxshonda, diydorimizdan ayro tushgan edi. Bizni sog'inib, Badaxshonni kuyovi Mirzo Sulaymonga topshirib, bir kunda Kobulga keladi. Mirzo Kamron ham Qandahordan Kobulga kelgan ekan. Iydgohda uchrashib qolib, hayron bo'lib, kelishini sababini so'rabdi. Muhammad Humoyun ham bizni sog'inganini aytib, Mirzo Hindolni Kobuldan Badaxshonga yuborib, bizning tarafga kelaveribdi. Bir necha kunda dorul xilofa – Ograga yetib keladi. Biz uning onasi bilan otini aytib,*

so 'zlashib o'tirgan edik hamki, kelib qoldi. Ko'ngillar gul yanglig' ochilib, ko'zlar chirog'dek yorishdi''. (Boburnoma. 2008. 284)

M.Pravdinning fikricha, Humoyunning Hindistonga kelishi tarixchilarda shubha uyg'otadi. Ba'zilar "Boburnoma"ga tayanib, Humoyun bu vaqtda Agrada bo'lishi kerak edi deyishsa, boshqalari uni Agrada to'satdan paydo bo'lishi mumkin emas edi, deyishadi. Boburnomada keltirilgan jumlar keyinroq Humoyun va uning avlodlari hukmronligi davrida o'zgartirib yozilgan. Humoyunni muhim ahamiyatga ega bo'lgan Badaxshonni tashlab ketishi, Hindolni otasining buyrug'iga zid ravishda Hindistonga emas, balki Badahshonga yuborishi Boburni qattiq ranjitgan bo'lishi kerak. Chunki Humoyun Badahshondan ketishi bilanoq, mo'g'ul xoni Qashqardan Badahshonga yurish boshlaydi. (Pravdin M., 1965. 79)

XULOSA

M.Pravdinning yuqoridagi qarashlariga qaysi tarixiy asarlar turtki bo'lganligi bizga ma'lum emas. Bu albatta Boburshunoslikda yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

Bizning fikrimizcha, Boburning niyati qanday bo'lishidan qat'i nazar umri poyonida taxt uchun munosib nomzod Humoyun ekanligiga amin bo'lgan va barcha beklarni to'plab, Humoyunni taxt vorisi ekanligini e'lon qiladi.

M.Pravdinning yuqoridagi ma'lumotlari tarixiy haqiqatga qay darajada mos kelishi yoki kelmasligi, bugungi kun boburshunos olimlarimizni qiziqtirishi tabiiy va bu farazlar boburshunoslikda yangi izlanishlarga turtki bo'lishi mumkin.

Har qanday adib tarixiy mavzuda ijod qilar ekan, albatta, tarixiy manbalarga, solnomalarga murojaat etishi, ulardan u yoki bu darajada foydalanishi va o'zidan qo'shishi tabiiy. Mixayl Pravdin ham Sharqning buyuk siymosi atalmish Bobur Mirzoga murojaat qilar ekan, fikrimizcha, avvalambor, u o'z oldiga mazkur tarixiy shaxs hayot yo'lining hali ochilmagan sahifalarini baholi qudrat yoritib berishni maqsad qilib qo'ygan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zahiriddin Muhammad Bobur. “Boburnoma” – Toshkent: Hozirgi o‘zbek tiliga tabdil V.Rahmon va K.Mullaho‘jayevalarniki. 2008. – 288 b.
2. Ibrohimov A. Boburnoma – buyuk asar. – Toshkent: 2000. – 77 b.
3. Conermann S. Das Mogulreich. – Muenchen: C.H.Beck, 2011. – 128 S.
4. Prawdin M. Das Reich aus dem Nichts. Die ersten Grossmoguln. – Stuttgart:1965. – 220 S.
5. Schimmel A. Im Reich der Grossmoguln. – Muenchen: C.H.Beck 2011. – 459 S.
6. Tursunov A. Nemis adabiyotida sharqning buyuk siymolari. Monografiya. – Namangan: 2022. – 146 b.
7. Langenscheidt Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache.
<https://www.langenscheidt.com/pdf>

REFERENCES

1. Zahiriddin Muhammad Babur. (2008) *Baburnama*. Translated into modern Uzbek by V.Rahman and K.Mullahajayeva. Tashkent. 288 p.
2. Ibrohimov A. (2000) *Boburnoma – a great work*. Tashkent. 77 p.
3. Prawdin M. (1965) *Das Reich aus dem Nichts. Die ersten Grossmoguln*. Stuttgart. 220 p.
4. Tursunov A. (2022) *Great Figures of the East in german Literature*. Monograph. Namangan. 146 p.
5. Langenscheidt Großwörterbuch Deutsch als Fremdsprache. (2022)
<https://www.langenscheidt.com/pdf>